

O'ZBEKISTONDA VASIYLIK VA HOMIYLIK INSTITUTIDAGI HUQUQIY KOLLIZIYALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Nasiriddinov Yigitali Borataliyevich

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Fuqarolik va iqtisodiy protsessual
huquqi kafedrası; ilmiy tadqiqotchi o'qituvchi

Nabijonova Dilafruz Abduljalil qizi

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21032823>

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya milliy agentligi, huquqiy kolliziya, yosh tafovuti, bolaning eng ustuvor manfaatlari.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistondagi ma'muriy islohotlar sharoitida vasiylik va homiylik tizimidagi huquqiy kolliziyalar hamda qonunchilikdagi bo'shliqlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida vakolatlar taqsimoti, vasiy va bola o'rtasidagi yosh tafovuti hamda nikoh munosabatlariga oid huquqiy bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik takliflari ishlab chiqildi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va bolaning ustuvor manfaatlarini ta'minlash maqsadida Oila kodeksiga kiritilishi lozim bo'lgan aniq takliflar asoslab berilgan.

Аннотация. В данной научной статье анализируются правовые коллизии и законодательные пробелы в системе опеки и попечительства в условиях административных реформ в Узбекистане. В ходе исследования выявлены системные противоречия, связанные с распределением полномочий, возрастной разницей между опекуном и ребенком, а также брачными отношениями. В целях устранения этих недостатков и обеспечения приоритетных интересов ребенка обоснованы конкретные предложения по внесению изменений в Семейный кодекс.

Abstract. This scientific article analyzes the legal conflicts and legislative gaps within the guardianship and trusteeship system in the context of ongoing administrative reforms in Uzbekistan. The study identifies systemic contradictions concerning the distribution of authorities, the age difference between the guardian and the child, and marital relations. To eliminate these shortcomings and ensure the paramount interests of the child, specific proposals for amendments to the Family Code are substantiated.

Voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish demokratik huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq, davlat oilani, onalikni, otalikni va bolalikni muhofaza qiladi hamda bolalarning huquqlarini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyil ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan samarali himoya qilishning huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyilni amaliyotda samarali ta'minlash maqsadida, keyingi yillarda davlat tomonidan keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan tashkil etildi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori bilan 2025-yil 1-fevraldan boshlab, voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik va homiylikni belgilash vakolati

tuman (shahar) hokimliklaridan Agentlikning “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga o’tkazildi.

Tadqiqotning maqsadi - vasiylik va homiylik belgilash tartibidagi mavjud huquqiy muammolarni aniqlash, ularni xalqaro standartlar va milliy qonunchilik asosida qiyosiy tahlil qilish hamda qonunchilikni takomillashtirish bo’yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot davomida amaldagi qonunchilik hamda huquqni qo’llash amaliyoti tahlili vasiylik va homiylik institutida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko’rsatdi.

Birinchidan, Oila kodeksining 174-moddasi bugungi kundagi ma’muriy islohotlarga mos kelmaydi. Mazkur modda vasiylik va homiylikni hokim qarori bilan belgilanishini nazarda tutadi. Holbuki, amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu vakolat O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga berilgan. Mazkur normaning amalda qo’llanilmayotganligi huquqiy aniqlik prinsipiga zid bo’lib, normativ-huquqiy kolliziyani yuzaga keltirmoqda. Shu sababli Oila kodeksining 174-moddasini yangi boshqaruv tizimiga mos ravishda qayta tahrir etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikda vasiy yoki homiy etib tayinlanayotgan shaxs bilan voyaga yetmagan bola o’rtasidagi minimal yosh tafovuti belgilanmagan. Vaholanki, Oila kodeksining 152-moddasida farzandlikka olishda kamida o’n besh yosh farqi talab etiladi. Vasiylik institutida bunday mezonning mavjud emasligi nazariy jihatdan 18 yoshga endigina to’lgan shaxsning 16–17 yoshli voyaga yetmaganga homiy etib tayinlanishiga imkon yaratadi. Bunday holat vasiylik institutining tarbiyaviy va ijtimoiy maqsadlariga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan Oila kodeksiga vasiy yoki homiy bilan vasiylikdagi shaxs o’rtasidagi yosh tafovuti kamida o’n besh yosh bo’lishi lozimligi haqidagi normani kiritish, yaqin qarindoshlar bundan mustasno etib belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, vasiylarni tayyorlash va ularning moliyaviy hisobdorligi bilan bog’liq muammolar mavjud. Hozirgi amaliyotda vasiylikka nomzodlar faqat tibbiy ko’rikdan o’tadi, ularning psixologik holati va bolani tarbiyalashga tayyorligi bo’yicha majburiy o’quv kurslari yo’q. Shu bilan birga, vasiy yoki homiy bolaning mol-mulkini boshqarishda suiiste’molchilikka yo’l qo’yilgan hollarda uni aniqlash mexanizmi yetarlicha kuchli emas va monitoring yuzaki o’tkaziladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun vasiylikka nomzodlar uchun majburiy “Vasiylik va homiylik maktabi” tashkil etish, kurslar va sertifikat olish tizimini joriy etish, shuningdek bolaning mulki va nafaqasidan foydalanish bo’yicha yillik moliyaviy hisobot topshirish majburiyatini joriy etish tavsiya qilinadi. Bu choralar nafaqat vasiylarning tayyorgarligini oshiradi, balki moliyaviy hisobdorlikni kuchaytirib, suiiste’molning oldini oladi.

To’rtinchidan, Oila kodeksining 16-moddasida farzandlikka oluvchi bilan farzandlikka olingan shaxs o’rtasidagi nikoh taqiqlangan bo’lsa-da, vasiy (homiy) bilan vasiylikdagi shaxs o’rtasidagi nikohga oid shunday taqiq mavjud emas. Mazkur huquqiy bo’shliq bolaning eng ustuvor manfaatlari tamoyili hamda vasiylik institutining mohiyatiga zid bo’lishi mumkin. Shu bois Oila kodeksining 16-moddasiga vasiylar (homiylar) bilan vasiylikdagi (homiylikdagi) shaxslar o’rtasida nikoh tuzishga yo’l qo’yilmasligi to’g’risidagi normani kiritish zarur.

Xulosa qilar ekanmiz, O’zbekistonda vasiylik va homiylik institutini isloh qilish bo’yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Tadqiqot natijasida amaldagi qonunchilikda mavjud bo’lgan bir qator

tizimli huquqiy bo'shliqlar va kolliziyalar aniqlandi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq qonunchilik takliflari ishlab chiqildi. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi vasiylik va homiylik institutining huquqiy aniqligini ta'minlash, bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish hamda O'zbekiston Respublikasida bolaning eng ustun manfaatlari tamoyilini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya: [Nyuyork, 1989-yil 20-noyabr]. – Toshkent: Adolat, 1992. – 32 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1998. – 16-, 152-, 173–175-b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi 2014-yil 2-yanvardagi O'RQ-364-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2014-y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2023-y.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo'yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 2024-yil 27-dekabrda 893-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2024-y.
6. Karimov Sh.Sh. Vasiylik va homiylik institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: Monografiya / Sh. Sh. Karimov. – Toshkent: TDYU, 2018. – 210b.